

DAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI

Xalikov Akmal Xolboyevich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22805323>

Qabul qilindi: 10-sentabr 2026-yil • Ma'qullandi: 16-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 17-sentabr 2026-yil

Davlat oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligi ta'lim jarayonining uzluksizligini ta'minlash, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, moddiy-texnik bazani yangilash hamda malakali kadrlar salohiyatini mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi. O'zbekistonda ushbu masalaning strategik ahamiyati Prezidentning 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan bo'lib, unda oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini ta'minlash, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda investitsiyaviy jozibadorligini oshirish ustuvor yo'nalish sifatida qayd etilgan¹. Mazkur vazifalarning huquqiy mexanizmlari Prezidentning 2021-yil 24-dekabrda PQ-61-son qarorida rivojlantirilib, moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta'lim muassasalariga to'lov-kontrakt qiymatini belgilash, daromad va xarajatlar parametrlarini tasdiqlash, mablag'lardan foydalanish yo'nalishlarini mustaqil aniqlash hamda qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb etish vakolatlari berildi². Ushbu islohotlar davlat OTMlarini markazlashgan moliyalashtirishga tayanuvchi muassasadan mustaqil moliyaviy qarorlar qabul qila oladigan va o'z daromad bazasini rivojlantiradigan subyektga aylantirish uchun institutsional asos yaratdi.

Biroq moliyaviy vakolatlarning kengayishi o'z-o'zidan uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni kafolatlamaydi. Moliyalashtirish hajmining nominal o'sishi daromadlarning qaysi manbalar hisobidan shakllanayotgani, ularning barqarorligi va muayyan manbada konsentratsiyalashuv darajasi bilan birgalikda baholanishi zarur. Bu masala "O'zbekiston — 2030" strategiyasida oliy ta'lim bilan qamrovni kamida 50 foizga yetkazish, 10 ta OTMni dunyoning "Top-1000" universitetlari qatoriga kiritish, ilmiy salohiyatni 70 foizga yetkazish hamda oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash vazifalari belgilangan sharoitda yanada dolzarbdur. Mazkur maqsadlar barqaror davlat moliyalashtirishini saqlab qolish bilan birga, ilmiy grantlar, xo'jalik shartnomalari, innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish, konsalting xizmatlari va davlat-xususiy sheriklik mablag'lari kabi manbalarni kengaytirishni talab qiladi. Shu sababli davlat oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini moliyaviy resurslar hajmi, moliyaviy mustaqillik va daromadlar diversifikatsiyasining o'zaro bog'liqligi asosida baholash hamda 2030-yilgacha bo'lgan istiqbolli rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Davlat oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini oshirish bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda daromadlarni ko'paytirish bilan bir qatorda xarajatlarni boshqarish, aktivlardan samarali foydalanish va moliyaviy xatarlarni oldindan baholash zarurligi ta'kidlanadi. Cropper universitetlarning moliyaviy faoliyati noaniq tashqi muhitda shakllanishini hisobga olib, yagona

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019, 8-oktabr). *O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida* (PF-5847-son Farmon).

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2021, 24-dekabr). *Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida* (PQ-61-son qaror).

prognozga tayanish o'rniga asosiy daromad va xarajat ko'rsatkichlarining turli sharoitlardagi o'zgarishini ssenariylar orqali modellashirishni taklif etadi; bunday yondashuv rahbariyatga moliyaviy xatarlarni oldindan aniqlash va tegishli boshqaruv choralarini ishlab chiqish imkonini beradi³. Tran, Dollery va Fellows Avstraliyadagi 37 ta davlat universitetining 2009-2010 va 2018-2019-yillardagi ma'lumotlarini tahlil qilib, moliyaviy barqarorlik faqat daromadlar hajmiga emas, balki ma'muriy xarajatlar tarkibi va universitet turiga ham bog'liqligini ko'rsatgan⁴. Mukhibad va hammualliflarning Indoneziyadagi 20 ta davlat universiteti bo'yicha 2012-2023-yillar panel tahlili investitsiya aktivlarining ko'payishi moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashi, qarz yukining ortishi esa uni zaiflashtirishini aniqlagan; shu bilan birga, daromadlar diversifikatsiyasining o'zi barcha sharoitlarda ijobiy natija bermasligi qayd etilgan⁵. Ushbu tadqiqotlar moliyaviy barqarorlikni oshirish uchun daromadlar diversifikatsiyasi, xarajatlar samaradorligi, aktivlarni tijoratlashtirish va ssenariyli rejalashtirishni yagona moliyaviy boshqaruv tizimida birlashtirish zarurligini ko'rsatadi. Biroq O'zbekiston davlat OTMlari misolida moliyaviy resurslar salohiyati, moliyaviy mustaqillik va diversifikatsiyani integral indeksga birlashtirgan holda istiqbolli rivojlanish parametrlarini baholash masalasi ochiq qolmoqda.

Tadqiqotda davlat oliy ta'lim muassasalarining 2020–2025-yillardagi moliyalashtirish ko'rsatkichlari asosida qiyosiy, tarkibiy va dinamik tahlil usullaridan foydalanildi. Moliyaviy barqarorlik moliyaviy resurslar hajmi, moliyaviy mustaqillik va daromad manbalarining diversifikatsiya darajasini birlashtiruvchi integral indeks orqali baholandi. 2026–2030-yillar prognozini ishlab chiqishda amaldagi tendensiyalar saqlanib qoladigan inersion, bosqichma-bosqich rivojlanishni nazarda tutuvchi bazaviy hamda moliyaviy imkoniyatlar faol kengayadigan optimistik ssenariylar qo'llanildi.

Hisob-kitoblar davlat oliy ta'lim muassasalarining integral moliyaviy barqarorlik indeksi 2020-yildagi 1,000 dan 2025-yilda 1,568 gacha oshganini ko'rsatdi. Ushbu o'sishning asosiy omili jami moliyalashtirish hajmining kengayishi bo'lib, moliyaviy mustaqillik va daromadlar diversifikatsiyasi ko'rsatkichlarida nisbatan sekin o'zgarish kuzatilgan. Demak, erishilgan o'sish moliyaviy barqarorlikning sifat jihatlari yaxshilanishidan ko'ra resurslar hajmining ko'payishi bilan ko'proq izohlanadi.

1-jadval

Davlat oliy ta'lim muassasalarining integral moliyaviy barqarorlik indeksi bo'yicha prognoz⁶

Yil	Amaldagi tendensiyalar ssenariysi	Bazaviy ssenariy	Optimistik ssenariy
2025	1,568	1,568	1,568
2026	1,658	1,698	1,733
2027	1,753	1,838	1,915
2028	1,854	1,990	2,116
2029	1,960	2,155	2,338
2030	2,073	2,333	2,584

Amaldagi tendensiyalar ssenariysida jami moliyalashtirish hajmi 2030-yilda 38,18 trln so'mga yetishi va integral indeks 2,073 ni tashkil etishi prognoz qilindi. Biroq moliyaviy mustaqillik koeffitsiyentining 2,849 darajasida saqlanib qolishi ushbu o'sish asosan mavjud moliyalashtirish manbalari hisobidan ta'minlanishini anglatadi. Bazaviy ssenariyda jami moliyalashtirish 45,10 trln so'mga, moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti 3,303 ga, diversifikatsiya koeffitsiyenti 0,434 ga va

³ Cropper, P. (2024). Financial scenario modelling: A guide for universities. *Journal of Higher Education Policy and Management*. Advance online publication.

⁴ Tran, C.-T. T. D., Dollery, B., & Fellows, C. (2025). Administrative intensity and financial sustainability: An empirical analysis of the Australian public university system. *International Journal of Public Administration*, 48(1), 55–72.

⁵ Mukhibad, H., Anisykurlillah, I., Sugiyat, J., Firmansyah, R., & Fauziah, R. I. (2025). Revenue diversification and financial sustainability—Focus on higher education in Indonesia. *Journal of Applied Research in Higher Education*, 1–12. Advance online publication.

⁶ Muallif hisob-kitoblari.

integral indeks 2,333 ga yetadi. Ushbu variant resurslar o'sishi, moliyaviy mustaqillik va diversifikatsiyaning o'zaro muvofiq yaxshilanishini nazarda tutgani sababli eng realistik va muvozanatli rivojlanish yo'nalishi sifatida baholanadi.

Optimistik ssenariyda ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, grantlar, xo'jalik shartnomalari, konsalting xizmatlari va biznes bilan hamkorlikdan olinadigan daromadlarning jadal kengayishi natijasida 2030-yilda jami moliyalashtirish 53,00 trln so'mga, moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti 3,636 ga va diversifikatsiya koeffitsiyenti 0,456 ga yetishi mumkin. Bunda integral moliyaviy barqarorlik indeksi 2,584 ni tashkil etib, 2025-yilga nisbatan 64,8 foizga oshadi. Mazkur natijaga erishish universitetlarda professional moliyaviy boshqaruvni kuchaytirish, ilmiy natijalarni tijoratlashtirish infratuzilmasini yaratish va budjetdan tashqari daromadlarning to'lov-kontraktga bog'liqligini kamaytirishni talab qiladi.

Tadqiqot natijalari davlat oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini oshirish faqat moliyalashtirish hajmini ko'paytirish bilan cheklanmasdan, moliyaviy mustaqillik va daromad manbalari diversifikatsiyasini birgalikda yaxshilashni talab qilishini ko'rsatdi. Amaldagi tendensiyalar ssenariysida 2030-yilga kelib integral moliyaviy barqarorlik indeksi 2,073 ga yetishi mumkin bo'lsa-da, moliyalashtirish tarkibida sezilarli sifat o'zgarishlari yuz bermaydi. Bazaviy ssenariyda indeksning 2,333 ga yetishi resurslar o'sishi, moliyaviy mustaqillik va diversifikatsiya o'rtasidagi eng maqbul muvozanatni ta'minlaydi. Optimistik ssenariyda esa mazkur ko'rsatkich 2,584 gacha oshishi mumkin, biroq bunga erishish ilmiy grantlar, xo'jalik shartnomalari, innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish, konsalting xizmatlari, universitet–biznes hamkorligi va endowment mablag'larini faol rivojlantirishni talab etadi. Shu sababli bazaviy ssenariy davlat OTMlari uchun eng realistik rivojlanish yo'nalishi, optimistik ssenariy esa institutsional va moliyaviy islohotlar izchil amalga oshirilgan sharoitda erishish mumkin bo'lgan strategik maqsad sifatida baholanishi lozim.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5847-son Farmon. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-4545884>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2021-yil, 24-dekabrdagi "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-61-son qaror. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-5793251>
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. (2026). *Davlat oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning 2020–2025-yillardagi ko'rsatkichlari*.
4. Cropper, P., & Cowton, C. J. (2021). Financial scenario modelling: A study of UK universities. *Journal of Higher Education Policy and Management*, 43(6), 592–606. <https://doi.org/10.1080/1360080X.2021.1888846>
5. Cropper, P., & Cowton, C. J. (2024). Financial scenario modelling: A guide for universities. *Journal of Higher Education Policy and Management*, 46(1), 78–91. <https://doi.org/10.1080/1360080X.2023.2256627>
6. Mukhibad, H., Anisykurlillah, I., Sugiyat, J., Firmansyah, R., & Fauziah, R. I. (2025). Revenue diversification and financial sustainability—Focus on higher education in Indonesia. *Journal of Applied Research in Higher Education*, 1–12. Advance online publication. <https://doi.org/10.1108/JARHE-11-2024-0678>
7. Tran, C.-T. T. D., Dollery, B., & Fellows, C. (2025). Administrative intensity and financial sustainability: An empirical analysis of the Australian public university system. *International Journal of Public Administration*, 48(1), 55–72. <https://doi.org/10.1080/01900692.2024.2314046>
8. Guthrie, J., Linnenluecke, M. K., Martin-Sardesai, A., Shen, Y., & Smith, T. (2022). On the resilience of Australian public universities: Why our institutions may fail unless vice-chancellors rethink broken commercial business models. *Accounting & Finance*, 62(2), 2203–2235. <https://doi.org/10.1111/acfi.12858>